



TALABALARDA KASBGA QIZIQISH UYG'OTISH

Mirkomilov Baxtiyor. J.D.P.U. professor.

Boboyeva Xolida. J.D.P.U., Tarix, magistranti.

Annotatsiya: Keltirilgan maqolada shaxsning umumiy va kasbiy rivojlanishining birligi insoniyat rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib uning mohiyati nafaqat o'quv jarayonida ta'lim olish bilanoq, balki talabalar bilimlarni o'zlashtirishi, ularning umumiy va maxsus qobiliyatlari, fazilatlari va malakalarini rivojlantirishida, balki shakllangan bilimlarni, fazilatlarni, qobiliyatlarni va hokazolarni kasbiylashtirish va yanada takomillashtirishda xizmat qiladigan tushuncha deb qarash mumkin. Oliy ta'limning bugungi holatini tahlil qilishimiz ta'limni modernizatsiyalashning quyidagi tamoyillarini ochib beradi: globallashtirish va internallashtirish; bashorat va utilizatsiya qilish; marketlashtirish; standartlashtirish; hududlashtirish; aksiologizatsiya va hokazo. Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim nafaqat modernizatsiya jihatidan, balki islohotlar, innovatsion rivojlanish nuqtai-nazaridan ham muhimdir. Bu muhim omilni yanada kengaytirib tadbqiq qilish yo'llari ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: psixologik, kasbiy faoliyat, modernizatsiya, kasbshunoslik, metodik, diagnostic, prognostic, kasbiy anglash.

Abstract: The article examines the unity of an individual's general and professional development as one of the fundamental principles of human development. Its essence is understood not only as the acquisition of education within the learning process, but also as the assimilation of knowledge by students, along with the development of their general and specialized abilities, personal qualities, and competencies. Furthermore, this concept serves to professionalize and further enhance the acquired knowledge, qualities, abilities, and related attributes. An analysis of the current state of higher education reveals the following principles of educational modernization: globalization and internationalization; forecasting and



utilization; marketization; standardization; regionalization; axiologization, and others. It should be emphasized that higher education is significant not only from the standpoint of modernization, but also in terms of reforms and innovative development. The article outlines approaches for expanding and effectively implementing this important factor.

Keywords: *psychological aspects, professional activity, modernization, vocational studies, methodological, diagnostic, prognostic, professional self-awareness.*

KIRISH:

Kasb tushunchasi kasbshunoslikning asosiy konseptual bosh tushunchasi bu kasb tushunchasidir. Kasbshunoslik adabiyotda kasb tushunchasining tavsif juda ko'p. Avvalambor bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Keyin kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. Ye.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha □ Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM:

Kasbiy tayyorgarlik mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog'liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo'lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan ishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, kasbiy moslashtirish bo'lajak mutaxassisda pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas'uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda



shaxsga qaratilgan yo'nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin. Kadrlarni kasbiy moslashtirishning pedagogik - psixologik jihatlarini tadqiqot muammosini nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy dolzarbligini asoslashda mavzu doirasidagi ahamiyatli tushunchalar, kategoriyalar mazmunini yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir. Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - yo'naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi mutaxassis shaxsining bilish sohasini o'z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsining kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi; - motivatsion tayyorligi. Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari o'z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi o'zida ijobiy munosabatni tarkib toptira olishi, o'zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o'quv 10 yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga va ta'lim olish jarayonida o'zini o'zi rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnatishga va rivojlantirishga qodirlikni ko'zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutqiy madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning



kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalikni, do'stonalilikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni, ishda, xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi.

Kasbiy tayyorgarlik bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirishi, individualashuvi demakdir. Ma'lumki, har bir oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bu talabalarini o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, talabalik maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir. Talabalarni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirishda quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1) talabalarda moslashuv jarayonining kechishi murakkab dinamiklikka ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;

2) talabalar uchun o'qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;

3) oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida talabalarda o'z-o'zini anglash tuyg'usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;

4) talabalarda bazaviy o'quv ustanovkalari shakllanadi

5) talabalik yillari tashkiliy, metodik va psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kasbiy va shaxsiy moslashuvining eng muhim bosqichidir.

Pedagogik va kasb ta'limiga doir adabiyotlarda □kasbiy yo'nalganlik tushunchasi quyidagi mazmunni anglatishiga e'tibor qaratiladi: 1) □Kasbiy yo'nalganlik shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat'iy ishonchi (A.B. Seyteshev); 2) □Kasbiy yo'nalganlik kasb tanlash, qiziqish, qat'iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o'rtasidagi aloqaning shaxsiy



sifatlarda etakchilik qilishi (N.K.Stepankova). Ayrim tadqiqotchilarning ishlarida esa bevosita shaxsning aniq kasbiy faoliyatga yo'nalganligi e'tiborga olingan holda □pedagogik kasbga yo'nalganlik tushunchasining mohiyatini ochib berishga nisbatan urinishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan: 1) □Pedagogik kasbga yo'nalganlik shaxsning □pedagogik kasbga qiziqishi va faoliyatning ushbu turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqi (N.V. Kuzmina); 2) □Pedagogik kasbga yo'nalganlik bolalarga bo'lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati.

XULOSA:

Demak xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasbiy bilim aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasidir. Bo'lajak pedagoglarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilimlar mutaxassis shaxsining sifat darajasiga qo'yiladigan malakaviy talablar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim mezon sanaladi. O'rganilgan pedagogic va kasbiy bilimlar talabalarga kelajak avlodni yetuk va ilimli shaxs sifatida tarbiyalash uchun juda ham muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. I.Karimov. T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. 94-b.
3. Борисова Е.М., Логинова Г.П. Индивидуальность и профессия.-М.: «Знание», 1991.-80-b
4. Шадриков В.Д. «Проблема профессиональных способностей», 1982.
5. Кадыров Б.Р.Способности и склонности: психофизиологическое исследование. Ташкент: «Фан», 1990.-105-b